


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

*70220302 - Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari  
magistratura mutaxassisligining*

*MALAKA TALABI*

Toshkent – 2024



*B*

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil «01» 08 dagi 277- sonli buyrug‘i bilan

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

T/r	bet
1. Umumiy tasnifi .....	4
1.1. Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi .....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari .....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari .....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.....	8
4. Fanlar katalogining tuzilishi.....	8
Bibliografik ma'lumotlar .....	9
<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>10</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70220302-Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari  
magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim  
shaklida amalga oshirila

di. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida  
tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 70220302-Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy  
tadqiqot usullari magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistlar tayyorlovchi  
barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va  
o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini  
samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida  
bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining  
boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va  
kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini  
o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga  
oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat  
organlari;

kadrler buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va  
boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari.**

70220302-Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari  
“Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)” ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib,  
barcha ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston  
Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot instituti, markazlari,  
ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli  
mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida,  
markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida ish boshqarish, ilmiy faoliyat  
bilan shug'ullanish, uni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal  
etish, shuningdek ijtimoiy soha va tarmoqlarni rivojlantirishda ilmiy-texnikaviy  
xavfsizlikni ta'minlash, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik  
qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va  
uslublarining majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalari;

fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, siyosiy tarix va ijtimoiy boshqaruv organlari;

iqtisodiyotning tarmoqlari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi ilmiy texnikaviy muassasalar, koorporatsiyalar, xususiy firma va kompaniyalar, ishlab chiqarish birlashmalari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari**

*Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyat;*

*huquq-tartibot;*

*tashkiliy-boshqaruv;*

*ishlab chiqarish va xizmat ko 'rsatish;*

*axborot-tahliliy faoliyat.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari:**

**70220302-Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari** mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferentsiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirop etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Huquq-tartibot faoliyatida:**

qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashda jamiyat, davlat va shaxs hamda ilmiy-texnikaviy faoliyat subyektlarining tarixiy tadqiqotlari va ma'naviy-mulkiy merosini qadriyatlarni va uni himoya qilish;

Manbaviy va tarixiy hujjatlarning huquqiy maqomi va qonuniyligini ta'minlash, bular borasidagi shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish;

Tarixiy tadqiqot usullari hamda manbaviy asoslarga zarar yetkazuvchi vaziyatlarni va tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Siyosiy ong nuqtai nazaridan tarixiy-manbaviy ma'lumotlarni soxtalashtirish, yolg'on va noto'g'ri tadqiqotlarni olib borishga qaratilgan maqsadli ilmiy jinoyatlar va qonunbuzarliklarni aniqlash va ochish, profilaktika qilish, ogohlantirish va qat'iy choralar ko'rish.

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

ilmiy tarixiy tadqiqot va ilmiy-texnikaviy ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

ilmiy-tadqiqot muassasalari, ilmiy-texnikaviy tashkilot va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

ilmiy tadqiqot muassasasining tarixiy tadqiqot usullarini olib borish faoliyatini amaliy jihatdan rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha aniq uslubiy ko'rsatmalar berish, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanishda samarali xizmat ko'rsatish;

tarixshunoslik va manbashunoslik ilmiy tadqiqotlarini olib borishda rejalashtirish, hujjatlarni yuritish, yangi texnika va texnologik usullarni ilmiy tadqiqot jarayonida qo'llash, tadqiqot usullarida ratsionalizatorlik takliflar va ixtiolar bo'yicha aniq ilmiy-amaliy va texnikaviy samaradorlikni aniqlash;

yangi qo'llanilayotgan tadqiqot usullarini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida to'g'ri baholagan holda ularning xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olib, tadqiqotlar aprobatasiyasining optimal shakllarini ishlab chiqish hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

ilmiy-amaliy tadqiqot uchun shartnomalar tuzishdagi zarur bo'ladigan hujjatlarni to'plash, ularning tezkor va statistik hisobotini olib borishni tashkil etish, hisobotlarni aniq va natijaviyligini to'g'ri ko'rsata olish;

tarixshunoslik va manbashunoslikda ilmiy tadqiqot markazlari, sohalarining tarixiy tadqiqotlarini olib borishlarida aniq grantlarni ishlab chiqish va tadqiqot usullarini olib borishdagi xizmat ko'rsatuvchi mehnat resurslaridan oqilona samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

tadqiqot usullarini olib borishda loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida tarixiylik, ishonchlilik va anqlik printsiplarini ta'minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy tadqiqotlarda ishlarning mavzusi yuzasidan ilg'or xorijiy tajribalar, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbiq etish.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar ularning ta'sirini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **2.Kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.**

Ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferentsiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tashkilot, korxona va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ilmiy-tadqiqot institutlarida ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda tarixiylik, anqlik, xolislik, ishonchlilik tamoyillarini qo'llay bilishi;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ilmiy loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, yo'nalish va sohalar bo'yicha iqtisodiy-moliyaviy va statistik hisobotlarni tuza olish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tarixshunoslik va manbashunoslik sohasi bo'yicha aniq tarixiy tadqiqot usullarini qo'llay olish, ularni bilish va tadqiqotlar o'tkazishda tahliliy ishlarni amalga oshirishni bilish;

ilmiy tadqiqot sohasi bo'yicha aniq tarixiy kontseptual yondashuvga ega bo'lish, strategik rejalarini ishlab chiqish, tarixshunoslik va manbashunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy muammolarning nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlamalarni amaliyatga tadbiq etishni bilish;

loyihalarning tarixiy-iqtisodiy hamda siyosiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

ijtimoiy-tarixiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullarini olib borishda kerakli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'g'ri qo'llay bilish va amaliy natijaga erishish.

### **3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy faoliyat** ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy sohada ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

*Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:*

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarini shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

*Ilmiy pedagogik ishlar:*

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

*Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish):*

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

## 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklama-ning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	1080	36	
1.01	ILTM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFOM1106	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	1
1.03	XXOT1106	XX asrda tarix va O'zbekiston tarixchilarini	180	6	1
1.04	UOTM1106	O'rta Osiyo xonliklarida an'anaviy tarixnavislik muktabrlari	180	6	1
1.05	STMU1206	Sharq tillaridagi matnlarni o'qish	180	6	2
1.06	PVMN1206	Paleografiya va matnshunoslik nazariyasi	180	6	2
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	720	24	2,3
		<b>Jami</b>	1800	60	
	<b>Kvalifikatsiya</b>	Tarixshunos-manbashunos, pedagog- tadqiqotchi			
3.00		<b>Ilmiy faoliyat</b>	1800	60	
3.01		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
3.02		Ilmiy tadqiqot ishi, magistrlik dissetatsiyasini tayyorlash va himoya qilish	1200	40	1,2,3,4
		<b>HAMMASI</b>	3600	120	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 378 (575.1).902.

Guruh UT 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy jarayonlar, manbashunoslik, atrixshunoslik, tarixiy tadqiqot usullari, ilmiy tadqiqot muassasalari va tarmoqlari, ilmiy-texnikaviy sohalar, huquq-tartibot, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, manbaviy tahlil, tarixiylik, aniqlilik, xolislik printsiplari, ilmiy qonunbuzarlik, ilmiy ishlab chiqarish, ilmiy loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy xorijiy ilg'or tajribalar, ilmiy tadqiqot markazlari, tadqiqot usullarini tashkil qilish, samarali foydalanish, virtual va elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari  
**ISHLAB CHIQILDI:**

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  M.Madjidov

202\_yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_



**KELISHILGAN:**


O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M.Boltabayev

202\_yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_




Termiz davlat universiteti

Rektor  A.Toshqulov

202\_yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_  
M.O'.

M.O'.

Namangan davlat universiteti

Rektor  S.Turg'unov

202\_yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_  
M.O'.



**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti  
70220302 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot  
usullari malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim  
muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“\_\_\_” 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekisgon Milliy universiteti rektori I.Madjidov, Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktor M.Boltabayev, Termiz davlat universiteti rektor A.Toshqulov hamda Namangan davlat universiteti rektori S.Turg‘unov O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talabi mazmuni bilan tanishib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70220302 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari magistratura mutaxassisligining Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydag‘i “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorii” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘ylgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsija etish mumkin.

Termiz davlat universiteti  
rektori



A.Toshqulov

Namangan davlat universiteti  
rektori



S.Turg‘unov

O‘zbekiston Milliy universiteti  
rektori

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi  
O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan  
70220302 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar  
usullari (mamlakatlar bo‘yicha) mutaxassisligining  
MALAKA TALABIGA  
TAQRIZ**

Bugungi kunda jahonda ro‘y berayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar Tarixshunoslik va manbashunoslik sohasiga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirib bormoqda. Bunda asosiy masalalar davlatchiligimiz tarixiga oid bo‘lgan birlamchi manbalarni xolis o‘rganish maqsad qilingan. Tarix sohasida O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti va boshqa ko‘p sonli oliy o‘quv muassasalarida olib borilayotgan dolzarb muammolarga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar kutilgan samarani bermoqda.


70220302 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari magistratura mutaxassisligini bitirgan magistr talabalar oliy ta’lim o‘quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bilan birga ilmiy-pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishmoqdalar. Ushbu mutaxassislik bo‘yicha “mutaxassislik”, “tanlov fanlari”, “ilmiy faoliyat” bloklarida talabalarga o‘tilayotgan fanlar to‘g‘ri tanlangan. Bu yo‘nalishda tahsil olayotgan magistrlar raqobatbardosh, zamonaviy kadrlar bo‘lib chiqayotganligi fikrimizning asosiy dalilidir.

Ushbu malaka talablari o‘quv rejaga mos keladi va fanlarga ajratilgan soatlar mutanosib taqsimlangan.

Xulosa qilib aytilganda, 70220302 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlangan malaka talablari hozirgi zamon talablari darajasida, ilg‘or tajribalardan foydalangan holda tayyorlangan bo‘lib, ular mamlakatimizda yuqorida keltirilgan talablar bo‘yicha kadrlar tayyorlashda xizmat qiladi va uni amalga tatbiq etish mumkin.

Islom Karimov nomidagi TDTU  
“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi mudiri

prof. R.E.Holqova



**Mirzo Ulug‘bek nomidagi  
O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan  
70220302 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar  
usullari mutaxassisligining  
MALAKA TALABIGA  
TAQRIZ**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 70220302 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari tayyorlandi.

Ushbu malaka talablari bilan tanishish natijasida quyidagi vazifalarni e’tiborga olinganligini ta’kidlash mumkin:

Tarixshunoslik va manbashunoslik juda keng yo‘nalishlarni o‘ziga qamrab olgan fan tarmog‘i bo‘lib, u turli manbalarning o‘rganishga e’tibor beriladi;

Mazmunan taqdim etilgan malaka talablari “Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari” magistratura mutaxassisligi bo‘yicha yuqori malakali va chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi;

malaka talablarida keltirilgan fanlar o‘zining dolzarbliji va ahamiyati bilan ifodalanadi. Ushbu fanlar turli mintaqalar va mamlakatlar tarixining dolzarb masalalarini yoritib berishga qaratilgan;

taqdim etilgan malaka talablarida bo‘lajak magistrlarning bilim-lari va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar aniq belgilab berilgan;

malaka talablari ilmiylik va uslubiyat talablarini hisobga olgan holda tayyorlangan. Unda xorijiy mamlakatlarning tajribasidan unumli foydalanilgan;

malaka talablari bo‘yicha o‘quv jarayoniga tadbiq etilishi ko‘zlangan fanlarning mazmuni aniq ko‘rsatib berilgan;

malaka talablari negizida tayyorlangan magistrlar zamonaviy bilimlar va kasbiy mahoratga ega bo‘lishiga zamin yaratilgan.

Malaka talablari dunyoning yetakchi oliy o‘quv muassasalari tajribalarini atroficha o‘rganib, mahalliy tajriba, talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilganligi mazmunida aks etgan.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayanib shuni e’tirof etish lozimki, 70220302 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari qo‘yilgan talablarga to‘la javob beradi va uni o‘quv jarayoniga tadbiq etish mumkin.

**O‘zbekiston Milliy universiteti  
Tarix fakulteti “Jahon tarixi”  
kafedrasi mudiri**



**D. Urakov**